

**ONGNI BOSHQARISH VA AXBOROT TERRORIZMI:  
ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR ONGINI HIMOYA QILISHNING  
MA'NAVIY MEKANEZIMLARI**

**Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich,  
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy  
tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri**

**Annotatsiya:** Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda inson ongi tobora murakkab ijtimoiy-psixologik va mafkuraviy bosimlar maydoniga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar ongini nishonga olgan sun'iy g'oyaviy konstruksiyalar, radikal mafkuralar va ekstremistik kontentlar axborot makonida keng tarqalmoqda. Mazkur maqolada ongni boshqarishning zamonaviy usullari, axborot terrorizmi xavfi hamda yoshlar ongini himoya qilishning ma'naviy mexanizmlari falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ongni boshqarish, axborot terrorizmi, ekstremistik mafkura, yoshlar ongi, ma'naviy immunitet, mafkuraviy xavf, tanqidiy fikrlash.

**УПРАВЛЕНИЕ СОЗНАНИЕМ И ИНФОРМАЦИОННЫЙ  
ТЕРРОРИЗМ: ДУХОВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ СОЗНАНИЯ  
МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ**

**Курбонов Шерзоджон Шухратович,  
Независимый соискатель Института социально-духовных исследований  
при Республиканском центре духовности и просвещения  
Республика Узбекистан, город Ташкент**

**Аннотация:** В современном информационном обществе человеческое сознание всё больше превращается в поле сложных социально-психологических и идеологических воздействий. Особенно активно в информационном пространстве распространяются искусственные идеологические конструкции, радикальные идеи и экстремистский контент, нацеленные на сознание молодёжи. В данной статье с философской и

социологической точек зрения анализируются современные методы управления сознанием, угроза информационного терроризма, а также духовные механизмы защиты молодёжного сознания.

**Ключевые слова:** Управление сознанием, информационный терроризм, экстремистская идеология, сознание молодежи, духовный иммунитет, идеологическая угроза, критическое мышление

## **MIND CONTROL AND INFORMATION TERRORISM: SPIRITUAL MECHANISMS FOR PROTECTING YOUTH CONSCIOUSNESS IN MODERN SOCIETY**

**Sherzodjon Shukhratovich Qurbonov,**

**Independent Researcher, Institute of Socio-Spiritual Research, operating under the Republic Center for Spirituality and Enlightenment  
Republic of Uzbekistan, Tashkent City**

**Abstract:** In today's information-oriented society, human consciousness is increasingly becoming a field of complex socio-psychological and ideological pressures. In particular, artificial ideological constructs, radical doctrines, and extremist content targeting the minds of young people are widely spreading in the information space. This article analyzes the modern methods of mind control, the threat of information terrorism, and the spiritual mechanisms for protecting the consciousness of youth from both philosophical and sociological perspectives.

**Keywords:** Mind control, Information terrorism, Extremist ideology, Youth consciousness, Spiritual immunity, Ideological threat, thinking

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda inson ongi tobora murakkab ijtimoiy-psixologik va ma'naviy bosimlar maydoniga aylangan. Ayniqsa, ongni boshqarishning psixologik usullari sifatida namoyon bo'ladigan qo'rquv uyg'otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish holatlari bu jarayonda alohida e'tibor talab etadi. Bu holatlarni ma'naviy mexanezimlar kontekstida falsafiy tahlil qilishni taqqozo etadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 6-7-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan Ozorboyjon Respublikasida bo‘lib Turkiy davlatlar tashkiloti sammitidagi so‘zlagan nutqida yoshlarimiz orasida yot va buzg‘unchi g‘oyalar tarqalishining oldini olish maqsadida turkiy davlatlar makonida ekstremistik va radikal mafkuraga qarshi kurashishga qaratilgan Harakatlar rejasini qabul qilishni taklif etishi bugungi globallashuv va axborot ekspluatatsiyasi sharoitida shaxsiyatning, irodaning va erkin tanlovning muqaddasligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Inson psixikasi tabiatan tashqi axborotga nisbatan sezuvchan va himoyasiz holatda shakllanadi. Shu sababli, tashqi axborotiy oqimlarning mazmuni, yo‘nalganligi va shakllanish usullari uning ongini, ma‘naviy me‘yorlarini, qadriyatlar sistemasini ham belgilaydi. Aynan mana shu jihat ongni boshqarishning ma‘naviy-psixologik mexanizmlari bilan ishlash zaruratini yuzaga keltiradi. “Zamonaviy sivilizatsiyaning insonni shaxs emas, balki axborot iste‘molchisi sifatida ko‘ruvchi paradigmasi, uni boshqarishning turli, ko‘pincha ong ostiga qaratilgan usullarini ishlab chiqdi – deb yozadi A. Xaydarova. Bu holat ayniqsa qo‘rquv uyg‘otish orqali amalga oshiriladigan psixologik dominatsiyalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qo‘rquv bu yerda passivlashtiruvchi emotsional reaksiya bo‘lib emas, balki ongli ijtimoiy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi: u insonning mustaqil tanlovga qodir emasligini "isbotlab", uni oldindan yaratilgan xavfsizlik g‘oyalariga, norma va standartlarga ergashtirishni oqlovchi vositaga aylanadi. Normamatova Maxsuda bu borada shunday ta’kidlaydi: “Inson erkinligi bo‘yicha shakllanayotgan nutqlar aynan xavf timsollarini doimiy ravishda yangilab borishga asoslanadi. Bu esa ongni doimiy qo‘rquv holatida ushlab turadi. Shu yo‘l bilan inson o‘z hayotiy yo‘nalishini o‘zi emas, balki tashqi ongni boshqaruvchilar tomonidan belgilangan xavfsizlik paradigmalari asoslangan holda tanlaydi. Bu esa faqat ijtimoiy emas, balki ma‘naviy sustkashlik, erkinlik tanazzuliga olib keladi. Stereotiplashtirish esa inson tafakkurining abstraktsiyalovchi kuchini o‘ldiradigan, u orqali doimiy ravishda sodda, reduktsiyalangan shakllar orqali

dunyoni idrok etishga majburlovchi ongiy strukturadir. Bu borada J. Utegenova shunday yozadi: “Stereotiplar – bu qadriyatlar emas, ular qadriyat timsollari; ular insonni mustaqil fikr emas, ijtimoiy kutilmalarga javob beruvchi mavjudotga aylantiradi”. Bu holat ma’naviy yangilanish jarayoniga zid ravishda ishlaydi, chunki stereotiplar hayotdagi o’zgaruvchanlik, harakat va tafakkurning murakkab dinamikasini inkor etadi. Oqibatda, jamiyatda doimiy ravishda takrorlanadigan qadriyatlar, tilda va tafakkurda qoliplangan formulalar – ongning real hayot voqeligidan ajralishiga olib keladi.

Tayyor qoliplarga ergashtirish esa ma’naviy muhitda ideologik va texnologik vositalar orqali amalga oshiriladigan eng kuchli manipulyatsion modeldir. “Keng jamoatchilik ongini standart fikr tizimlari orqali boshqarish jarayonida inson o’zini o’zi tanqidiy anglay olmaydi, balki ijtimoiy mashinaga aylanishni istaydi” – deb yozadi Shukurov. Bu holatda inson shunchaki axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni passiv tarzda takrorlovchi, tarqatuvchi va himoya qiluvchi vositaga aylanadi. Tayyor qoliplar insonni o’z ongini muhokama qilishga emas, balki uni ijtimoiy maqbullik mezonlari asosida filtrlashga majbur qiladi. Bu esa, bir qarashda, ijtimoiy tartibni ta’minlagan bo’lsa-da, aslida shaxsning ongi va ma’naviyatining erkin rivojlanishiga putur yetkazadi. Shunday qilib, ongni boshqarishning bu uch asosiy psixologik usuli – qo’rquv uyg’otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga ergashtirish – aslida inson ma’naviyatining sun’iy konstruksiyalarga bo’ysunishini kuchaytiruvchi mexanizmlardir. Bunday jarayonlar nafaqat axborot makonida, balki ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy diskurslarda ham faol namoyon bo’lmoqda. Inson erkinligining ramzi bo’lgan ongning bunday murakkab psixologik tizimlar bilan boshqarilishi ma’naviy taraqqiyot uchun emas, balki insoniylikning transformatsiyasi – ba’zan esa sun’iy regressiyasi uchun xizmat qilishi mumkin. Yuqoridagi fikrlar asosida shuni xulosa qilish mumkin: ongni boshqarishga qaratilgan psixologik strategiyalar zamonaviy ma’naviy mexanezimlar bilan uyg’unlashgan holda, insonni avvalo o’z tanlovining subyekti emas, balki obyekt sifatida shakllantirishga intiladi. Bu holatga qarshi

faqat tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlash madaniyati va doimiy ma'naviy uyg'onish ruhidagi faol qarshilik vosita bo'la oladi.

Ongni boshqarish mexanizmlari zamonaviy ijtimoiy-psixologik va ma'naviy mexanizmlar kontekstida inson ongini chuqur nazorat ostiga olishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Qo'rquv uyg'otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga majburiy ergashtirish usullari zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalarida keng qo'llanilmoqda. Stanley Cohen o'zining "Folk Devils and Moral Panics" asarida jamiyatda qo'rquv uyg'otish mexanizmlarini tahlil qilar ekan, "ijtimoiy muammolar ko'pincha ommaviy axborot vositalarida shunday kuchli dramatizatsiya qilinadiki, ular odamlarda nazoratdan tashqarida qolayotgan xavf-xatar tasavvurini uyg'otadi" deya ta'kidlaydi. Ushbu fikr ma'naviy jarayonlarda qo'rquvning texnologik usul sifatida ishlatilishini ko'rsatadi, chunki insonlar ongida sun'iy ravishda shakllantirilgan xavotir hissi ularga tayyor g'oyaviy qabulchanlikni singdiradi. Demak, qo'rquv ongni inert holatga keltirib, shaxsni muayyan siyosiy yoki diniy diskurslarga bo'ysundirish vositasiga aylanadi.

Shunday qilib, qo'rquv uyg'otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga ergashtirish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular ongni nazorat qilishning turli ko'rinishlarini tashkil etadi. Bu mexanizmlar orqali shaxsiy ma'naviy jarayonlar sun'iy ravishda yo'naltiriladi, texnologik vositalar esa bu jarayonni tezkor va keng ko'lamli amalga oshirish imkonini beradi.

Axborot makonining globallasuvi va kommunikatsion texnologiyalarning eksploziv rivojlanishi inson ongi ustidan olib borilayotgan kurashlarning shakl-shamoyilini tubdan o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, bu jarayonlar yoshlar qatlamida sezilarli darajada keskinlik kasb etib, ularning ma'naviy dunyosini nishonga olgan yangi avlod tahdidlarini vujudga keltirdi. Ushbu tahdidlar axborot terrorizmi fenomeni orqali namoyon bo'lib, u zamonaviy texnologiyalar vositasida shakllanayotgan ongli-maqсадli psixologik, mafkuraviy va ijtimoiy manipulyatsiyalar tizimini tashkil etadi.

Zamonaviy axborot makonida ongni boshqarishning psixologik va mafkuraviy usullari insonning erkin fikrlash, ijtimoiy ong va ma'naviy mustaqilligiga tahdid solmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga qarshi olib borilayotgan axborot terrorizmi – sun'iy xavotir, qo'rquv, stereotip va g'oyaviy manipulyatsiyalar orqali amalga oshirilayotgan ongiy nazorat shakli – bugungi jamiyat uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu holat faqat axborot xavfsizligi emas, balki ma'naviy barqarorlik va shaxsiyat erkinligi nuqtai nazaridan ham o'ta dolzarbdir.

Yuqoridagi tahlillar zamonaviy axborot makonida yoshlar ongiga ta'sir o'tkazish, uni boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarining tobora murakkablashib borayotganini ko'rsatadi. Qo'rquv uyg'otish, stereotiplashtirish va tayyor qoliplarga ergashtirish kabi psixologik usullar orqali insonning mustaqil fikrlash qobiliyati zaiflashadi, u o'z tanlovining subyekti emas, balki tashqi kuchlar tomonidan yo'naltirilayotgan obyekt sifatida shakllanadi. Bunday holat, ayniqsa, yoshlar ongiga tahdid soluvchi "axborot terrorizmi" fenomeni orqali yanada kuchaymoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining eksploziv rivojlanishi bu manipulyatsion jarayonlarni tezkor, keng ko'lamli va chuqur ta'sirchan holga keltirgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida ilgari surilgan taklif — yoshlar orasida yot va buzg'unchi g'oyalar tarqalishining oldini olish, ekstremistik va radikal mafkuralarga qarshi kurashish uchun harakatlar rejasini ishlab chiqish — ana shunday murakkab axboriy va ma'naviy tahdidlarga qarshi tizimli chora sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, jamiyatda mustaqil fikrlash, tafakkur erkinligi, tanqidiy ong va ma'naviy uyg'onish madaniyatini shakllantirish zarur. Faqat ana shunday ongiy immunitet vositalari orqali inson o'z hayoti va kelajagini ongli ravishda belgilay oladigan, manipulyatsiyalarga qarshi tura oladigan erkin shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Bu esa nafaqat axborot xavfsizligi, balki ijtimoiy barqarorlik va milliy ma'naviyatni saqlab qolishning ham asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev SH.M. Turkiy davlatlar tashkiloti sammitidagi so‘zlagan nutqi. Yangi O‘zbekiston gazetasi (08.10.2025). № 206-son
2. Xaydarova A.Virtual reallik falsafasining metodologik yo‘nalishlari. – Toshkent: O‘zMU, 2022. — 74 b.(21-bet)
3. Normamatova M Ijtimoiy xizmatlar sohasini virtuallashtirish: mohiyati, nazariyasi va metodologiyasi. – Samarqand: SamDU, 2023. — 72 b.(13-bet)
4. Utegenova J.Virtual reallik XX asr madaniy fenomeni sifatida. – Samarqand: NDPI, 2023. — 70 b.(17-bet)
5. Shukurov A.Jamiyat hayoti virtuallashtirishda milliy strategik yondashuv metodologiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2023. — 65 b.(9-bet)
6. Cohen, S. Folk Devils and Moral Panics. – London: Routledge. — B. 9